

2020- yilning yanvar-avgust oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, harajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

**4 028,1
mlrd. so'm**

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



100,6 %

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'atlari**


99,0 %

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining o'sish
sur'atlari**

**2152,4
ming so'm**

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 80,6 mlrd. so'mga oshib 564,1 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 127,4 mlrd. so'mga o'sgan va 522,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil VII - diskret (avgust) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil VIII - diskret (avgust) oyining hajmi 49,4 mlrd. so'mga o'sgan.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning VII va VIII - diskret oylari o'rtasidagi farqi 41,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4 028,1	100,6
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	220,8	111,6
Moliyaviy xizmatlar	820,1	128,5
Transport xizmatlari	956,2	95,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	917,2	96,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	84,2	79,7
Savdo xizmatlari	1 089,8	92,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	111,8	89,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	150,8	97,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	65,3	91,7
Ijara xizmatlari	82,4	98,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	132,8	92,8
Shaxsiy xizmatlar	122,6	90,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	93,3	135,1
Boshqa xizmatlar	98,0	81,7


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 27,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,7 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,5 %) qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 2,1 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 2,1 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hisssasi 2,3 % ga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi



Yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlar (35,1 %), moliyaviy xizmatlar (28,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,6 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (20,3 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (18,3 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (11,0 % ga), shaxsiy xizmatlar (9,7 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (8,3 % ga), shuningdek, kompyuterni ta'mirlash xizmatlari (7,2 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 27,1 % ni tashkil etib, bu 1 089,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi 27,1 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,4 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 820,1 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 600,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ularni ulushi 16,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 229,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 28,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ularni o'sish sur'ati 168,0 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobida ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,6 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,1 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,3 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunarlar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)




2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 220,8 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 111,6 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



<p>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,7 % ni tashkil etdi.</p>	<p>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,9 %, noshirlik xizmatlari, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 1,7 % dan tashkil etdi.</p>
--	--

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 150,8 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,8 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 79,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 84,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 73,6 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

2020- yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 65,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,7 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Xorazm viloyati	4028,1	100,6	2152,4
Urganch shahri	2036,0	103,8	14119,0
Xiva shahri	136,7	105,3	1480,5
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	177,1	101,7	1077,8
Gurlan	173,9	94,1	1174,3
Qo'shko'pir	175,9	105,1	1023,6

Dastlabki ma'lumotlar

Urganch	287,8	82,2	1450,6
Hazorasp	173,0	86,1	894,5
Tuproqqal'a	54,5	85,0	988,5
Xonqa	196,4	98,0	1056,0
Xiva	162,6	109,0	1119,8
Shovot	164,4	101,4	969,4
Yangiariq	152,3	110,0	1315,6
Yangibozor	137,5	113,6	1577,2

) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida (2036,0 mlrd. so'm), Urganch (287,8 mlrd. so'm) va Xonqa tumanlarida (196,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 152,4 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,0 % ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 62-22-4-65-16